

UDK:321

Khakimova Dilnoza

PhD student of the 1st stage of the Sharof

Rashidova Samarkand State University

CONCEPT, CONTENT AND CHARACTERISTICS OF LEGAL
AWARENESS

Keywords: Legal awareness, legal culture, duty, social awareness, society, legal feelings, emotions, ideas, views, assessments, vision, citizen, etc.

Abstract: The article presents opinions on the concept of legal awareness, one of the factors determining the legal thinking of our society, and its content and essence.

Xakimova Dilnoza

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti

I bosqich doktoranti

HUQUQIY ONG TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA XUSUSIYATLARI

Kalit soʻzlar: Huquqiy ong, huquqiy madaniyat, burch, ijtimoiy ong, jamiyat, huquqiy hissiyotlar, tuygʻular, gʻoyalar, qarashlar, baholar, yoʻl- tasavvur, fuqaro va h.k.

Annotatsiya: Maqolada jamiyatimizning huquqiy tafakkurini belgilab beruvchi omillardan biri huquqiy ong tushunchasi, uning mazmun-mohiyati hususida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Huquqiy ong ijtimoiy ong shakllaridan biri boʻlib, ayni vaqtda nisbatan mustaqildir. U ijtimoiy turmushda mavjud boʻlgan, jamiyatimizga xos turli-tuman holatlar yigʻindisini oʻzida mujassamlashtiradi. Huquqiy ong – huquqiy hissiyotlar, tuygʻular, gʻoyalar, qarashlar, baholar, yoʻl-yoʻriqlar, tasavvurlar va fuqarolarning Oʻzbekiston Respublikasiga munosabatini koʻrsatuvchi, bu munosabat esa

amaldagi huquqqa, huquqiy amaliyotga, fuqarolar huquqlari va burchlariga nisbatan, shuningdek, boshqa orzu qilingan huquqlarga nisbatan bo'lishi lozim holatlar tizimidir. Huquqiy ong tarkibini o'rganishning asosiy jihatlari, ijtimoiy ong tarkibini o'rganishda bo'lganidek, gnoseologik va sotsiologik tomonlardir, chunki ular o'zaro farqlansa-da, har holda bir-birini inkor etmaydi, aksincha to'ldiradi.

Gnoseologik yondashilganda huquqiy ong, in'ikos, jamiyatni bilish shakllaridan biri sifatida, sotsiologik yondoshilganda esa ijtimoiy hodisalar orasida uning o'rni va umuman, ijtimoiy taraqqiyot nuqtai nazaridan o'rganiladi. Huquqiy ong tarkibi. Gnoseologik tomondan qaralgan huquqiy ong tarkibi, mavjud huquqiy holat in'ikosning ikki darajasi – huquqiy mafkura va huquqiy psixologiyadan tashkil topadi. Huquqiy psixologiya atrofimizdagi mavjud huquqiy holatning bevosita ta'sirida shakllanadi va huquqiy ongning dastlabki empirik bosqichi hisoblanadi. Huquqiy ongning xuddi shu bosqichidan huquqiy borliqni idrok etish bilan birlamchi tanishish boshlanadi. Huquqiy psixologiyadan farqli ravishda, huquqiy mafkura, huquqiy ongning ancha yuqori, ilmiy-nazariy konsepsiyalashgan va odamlar tomonidan ijtimoiy hayotning huquqiy hodisalarini ancha chuqur idrok etish bosqichini tashkil qiladi. Huquqiy ongning g'oyaviy tashkillanish jarayoni to'plangan, muayyan his-tuyg'ular bilan yo'g'rilgan material asosida g'oyaning uzil-kesil namoyon bo'lishi, huquqiy borliq haqidagi tasavvurning sayqallanish holatlari kechadi va bu odamlar irodasining shakllanishida katta o'rin tutadi.

Huquqiy mafkura va huquqiy psixologiya, huquqiy ongning turli elementlari sifatida o'zaro bog'liq va bir-biridan kelib chiquvchi hodisalardir. SHu bilan birga, ular ancha farqlanadilar. Ular orasidagi asosiy farq ijtimoiy borliq va ob'ektiv huquqiy muhitni turli ijtimoiy vositalar: birinchisi – g'oyalar, nazariyalar yordamida, ikkinchisi – ruhiy his tuyg'ular yordamida aks ettiradi. Mazkur aks etishning turlicha darajasi va usuli mavjud. Agar, ijtimoiy borliqning huquqiy mafkurada aks etishi ilmiynazariy idrok, nazariy bilimlar va qonunchilik, huquq-tartibot, qonuniylik va boshqa huquqiy holatlarni baholash darajasida kechsa, u

holda bunday in'ikos huquqiy psixologiyada, dastavval oddiy, kundalik turmush idroki darajasida kechadi. Shuning uchun ham huquqiy ong tuzilishidagi boshqaruvchi element huquqiy g'oyalar majmuasi hisoblanadi. Biz ko'rayotgan yo'nalishda, huquqiy mafkura va huquqiy tizim rivojini tavsiflovchi, ichki birlikka ega bo'lgan ilmiy qarashlar, g'oyalar, nazariya va ta'limotlar sifatida qaraladi.

Huquqiy psixologiya esa his, tuyg'u, kayfiyat va boshqa huquq psixologiyasi tarkibiy qismining yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Ular ijtimoiy hayotning turli huquqiy jihatlarini aks ettiradi. Huquqiy ongning bu ikki tarkibiy qismi o'zaro bog'liq va doimo bir-birini to'ldiradi. Huquqiy ong tuzilmasini sotsiologik tahlil qilish undagi uch tarkibiy qism – bilish, baholash va amaliy huquqiy ongni ajratib ko'rsatish imkoniyatini beradi. Huquqiy ongning funksiyalari. Huquqshunos olimlar huquqiy ongning quyidagi funksiyalarini ko'rsatadilar: - gnoseologik funksiya; -shakllantirish funksiyasi; - huquqiy ongning o'zini o'zi boshqarish funksiyasi. Gnoseologik funksiya ob'ektiv borliqdagi mavjud huquqiy holatlarni bilishni tavsif etadi. Boshqaruv – o'z fe'l-atvorini huquq talablari bilan qiyoslash vositasida o'z xatti-harakatlarini o'zgartirishdir. SHakllantirish funksiyasi – o'z xulqini, xatti-harakatlarini shakllantirishdan iborat bo'lib, u juda zarur. Ayrim mualliflar huquqiy harakatlar orasidan huquqiy ongning bilish, baholash va boshqaruv funksiyalarini ajratib ko'rsatadilar.

Huquqiy ongning bilish vazifasi ketma-ket paydo bo'luvchi ruhiy hodisalardan tuzilgan: birinchidan, u asosan sezish, eshitish va ko'rishdan tug'iladi; ikkinchidan, qabul qilish, xotira, esda saqlash, xotiradagilarni qayta tiklash, tanish jarayonlari vositasida huquqqa oid bilimlarni to'playdi va ularni har xil huquqiy tasavvurlar ko'rinishida ifoda etadi; uchinchidan, tafakkur, oliy darajadagi bilish jarayoni hisoblanib, huquqiy g'oyalar, tushuncha va e'tiqodlar shuning mahsulidir. Huquqiy ongning o'zini boshqarish funksiyasi inson orzuomidlarini oqilona ro'yobga chiqarish huquqiy ongning amaliy tomoni hisoblanib, u iroda orqali amalga oshiriladi. U huquqiy bilimlarni aniqlash, ichki tuyg'ular bilan mavjud huquqiy e'tiqodlar, mavjud ob'ektiv borliq, jamiyatda amal

qilinayotgan huquqiy normalarni muvofiqlashtirish, maqsadni aniqlash, qaror qabul qilish va qarorni ijro etish kabilarni o'z ichiga oladi. Huquqiy ongga tushayotgan huquqiy axborotni «qayta ishlash» va o'zlashtirishda inson fe'l-atvorini boshqaruvchi murakkab mexanizmlar muhim o'rin egallaydi, u manfaatni, maqsadni aniqlash, asoslar tizimi va xohishni namoyon etish kabi holatlarni o'z ichiga oladi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat..Huquqiy ong – huquqiy madaniyatning muhim elementi. Huquqiy ong shaxs ongida, jamiyat g'oyalarida namoyon bo'lgan huqukdir. Huquqiy ong huquq va qonuniylikka munosabatdagi e'tiqodlar, tasavvurlar, baholar, histuyg'ular va ma'naviyatning boshqa tarkibiy qismlari tizimidir. Huquqiy ong huquqiy madaniyatning davlat va jamiyatning boshqaruv ta'siriga eng kam uchragan elementidir. Tezlik bilan yangi qonun qabul qilish, davlat organini tuzish mumkin, ammo insonning huquqiy ongini tezda o'zgartirib bo'lmaydi. Yuksak huquqiy ongni shakllantirish ko'p kuch hamda vaqt talab qiluvchi qiyin vazifa.

Huquqiy qadriyatlarni ma'naviy o'zlashtirish oddiy insoniy madaniyat va savodxonlikning bo'lishini taqozo etadi. U shaxsni umumiy tarbiyalash jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir. Huquqiy madaniyat jamiyat va shaxsning huquqiy holati timsolida qabul qilinishi mumkin bo'lgan alohida ijtimoiy hodisadir. Jamiyatning huquqiy madaniyati huquqiy ongning, qonuniylikning, qonunlarni takomillashtirishning va huquqiy tajribaning muayyan darajasini aks ettiradigan hamda insoniyat huquq sohasida yaratgan butun boyliklarni qamrab oladigan ijtimoiy madaniyatning bir turi sifatida ko'riladi. Huquqiy madaniyat insonsiz va uning dunyoqarashini belgilovchi faoliyatsiz, bunday faoliyat va tafakkurning progressiv yo'nalishsiz mavjud bo'la olmaydi. Huquqiy ong va xulq-atvor o'rtasidagi qonun nuqtai nazaridan ahamiyatga molik munosabat ancha murakkab. SHu bilan birga odamlar fe'l-atvorining shakllanishida huquqiy normalarning katta ahamiyatini unutmaslik lozim.

Ijtimoiy hayotni demokratlashtirish va huquqiy davlat tuzish huquqiy ongdan inson fe'l-atvorini yuridik ahamiyatga molik yo'nalishda boshqarishda

foydalanishni taqozo qiladi. Birinchidan, huquqiy ong faqat fuqaro tomonidan yuridik ahamiyatga molik fe'l-atvor maqsadini anglashga ko'maklashmaydi. SHu bilan birga, u huquqiy ongning asosiy manbai ham hisoblanadi. Boshqaruv imkoniyatiga ko'ra, ongning bu ko'rinishi bilan faqat ongning teran ko'rinish shakli – ma'naviy ongni baravar qo'yish mumkin. Huquqiy ong insonga vaziyatni har taraflama mushohada qilishga yordamlashadi. Ikkinchidan, huquqiy ong insonga yuridik ahamiyatga molik fe'l-atvorga erishish vositalarini ko'rish va mana shu farazni vositalar orasidan muayyan keragini tanlashga ko'maklashadi. Uchinchidan, shaxsning huquqiy ongi (ma'naviy va siyosiy ongi bilan birgalikda) unga yuridik ahamiyatga molik fe'l-atvorga erishish uchun tanlangan yo'lning ijtimoiy ta'sirchanligini yoki aksincha, ta'sirchan emasligini baholashda yordamlashadi. Fuqarolarning ijtimoiy-huquqiy faolligi ularning huquqiy masalalarni echishda, qonunchilik va huquq-tartibotni mustahkamlashda, huquqbuzarlikka qarshi kurashda shaxsan ishtiroki va shu kabilar fe'l-atvorning yuridik ahamiyatga molik oliy ko'rinishi hisoblanadi. Shunday qilib, ijtimoiy-huquqiy faollikning, bir-biri bilan bog'liq ikki qismdan tashkil topganligi ko'rinadi. Birinchi qism – fuqarolarning jamiyatda qonuniylik va huquq tartibotni saqlashga bo'lgan doimiy ichki tayyorgarligi; ikkinchi qism – amaliy tashabbuskorlik faoliyati.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Tulenov J., G'ofurov Z. Falsafa. — T., 1997. – B. 197-228.
2. Ramazanov I. Huquqni falsafiy jihatdan asoslash // Davlat va huquq.– 1998.– №3. Falsafa / Akademik E. YUsupov tahriri ostida. — T., 1999. – B.101-123, 125-127.
3. Tadjixanov U., Saidov A. Davlat va huquq asoslari.– T.,1999.
4. Saidov A.X. Sravnitelnoe pravovedenie. – T., 1999. Xan S.M. O predmete sotsiologii prava // Huquq-Pravo-Law. – 1999. – №2.

5. Abduxalikov S. Huquq falsafasi va yuridik sotsiologiya. // Hayot va konun.– 1999. – №5.

6. Tadjixanov U. Huquqiy islohotlar: muammolar va istiqbollar // Huquq-pravo-Law.– 2000. – №1.